

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«KELISHILDI»

**Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi**

«___» _____ 2021 y.

«TASDIQLAYMAN»

TDIU rektori

K.A.Sharipov



_____ 2021 y.

5230700 – Bank ishi va auditi ta'lim yo'nalishi negizidagi:

5A230701 - Bank ishi va auditi

**magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar
uchun maxsus (ixtisoslik) fanlaridan**

D A S T U R

Toshkent - 2021 yil

Annotatsiya

Dastur 5A230701 - Bank ishi va auditi magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5230700 - Bank ishi va auditi ta'lim yo'nalishining amaldagi o'quv rejasidagi fanlar asosida tuzilgan.

TUZUVCHILAR:

B.Berdiyarov – TDIU «Bank ishi va investisiyalar» kafedrası mudiri, i.f.d., professor.

A.Norov – TDIU «Bank ishi va investisiyalar» kafedrası dosenti, PhD.

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashi majlisining 2021 yil 30 iyundagi 13-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

KIRISH

5A230701 - Bank ishi va auditi magistratura mutaxassisligi – tijorat banklari faoliyatining barcha yo'nalishlari, iqtisodiy-xuquqiy va tashkiliy asoslari, faoliyat tamoyillari, likvidliligi, barqarorligi va to'lov qobilliyatini ta'minlash usullari, banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritish, barcha bank operasialarining buxgalteriya hisobida aks ettirish, ichki nazoratning tashkil etilishi, bank faoliyati auditini tashkil qilish va o'tkazish, moliyaviy hisobotlarni tuzish, moliyaviy hisobotlarni auditdan o'tkazish, auditorlik xulosalarini tayyorlash, bank mijozlariga kompleks xizmat ko'rsatish masalalar majmuasini qamrab oladi.

Bakalavriatning 5230700 “Bank ishi va auditi” ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi - talabalar bilimlarini chuqurlashtirish va tijorat banklarida moliyaviy rejalarni, yig'ma moliyaviy balanslarni, asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash, tijorat banklarida strategik rejalashtirish, ular faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish, pul-kredit va byudjet-soliq siyosati bilan bog'liq ravishda o'rta va uzoq muddatli moliyaviy (byudjetlarni) prognozlash, bank tizimi barqarorligini ta'minlash va uni modernizatsiyalash orqali rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish, bank tizimining davriy iqtisodiy inqirozlarga qarshi choralar bilan faoliyat yuritishini ta'minlash, tijorat banklarida tashqi va ichki auditni tashkil etish, tijorat banklarida auditorlik tekshiruvni samaradorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish, tijorat banklarining emission faoliyatini tashkil qilish va bank ehtiyojlari uchun investisiyalarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish, monetar siyosat instrumentlarini ishlash mexanizmini bilish, qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat bilan shug'ullanish, respublika qimmatli qog'ozlar bozori markazlashgan infratuzilmalarining operasion faoliyatini tashkil qilish, qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va nazorat qiluvchi davlat organlari ishini tashkil qilish masalalarini echish, algoritmlash va matematik ta'minotni yaratish, texnologik echimlarni ishlab chiqish bo'yicha hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5230700 - Bank ishi va auditi ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A230701 - Bank ishi va auditi magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 2 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: “Bank ishi”, “Banklarda buxgalteriya hisobi” va 4 ta umumkasbiy fanlar bo'yicha: “Pul va banklar”, “Monetar siyosat”, “Bank menejmenti va marketingi” fanlaridan test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

BANK ISHI fani bo'yicha:

“Bank ishi” fanining predmeti va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari. Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari. O‘zbekiston Respublika banklarida raqamlarni (hisob varag‘larini) ochish, yopish va qayta hujjatlashtirish tartibi. Tijorat banklarining hisob-kitob operatsiyalari. Tijorat banklari passivlari tarkibi va ularni joylashishi. Tijorat banklarining aktivlari tarkibi va ularni joylashishi. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari. Tijorat banklarini moliyaviy bozor operatsiyalari. Kreditlashni tashkil etish asoslari va ularning bosqichlari. Aylanma mablag‘lar va mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash usullari. Kreditning ta‘minoti va uning shakllari. Tijorat banklarining foiz siyosati. Kichik biznes va tadbirkorlik sub‘ektlarini kreditlash. Tijorat banklari tomonidan qishloq xo‘jalik sub‘ektlarini kreditlash. Alohida kredit turlari. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari. Tijorat banklarining emissiya-kassa operatsiyalari. Tijorat banklarining yangi xizmat turlari. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari. Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasi. Tijorat banklarining to‘lovga layoqatliligi va likvidligi. Tijorat banklari risklari va ularni boshqarish usullari. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish.

BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI fani bo'yicha:

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi. Bank operatsiyalarini hujjatlashtirish va hujjatlar aylanishi. Bank ichki nazorati. Banklarda sintetik va analitik hisobni yuritish. Mijozlarga bank hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibi. Banklarda depozit operatsiyalari hisobi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar hisobi. Banklararo hisob-kitoblar hisobi. Banklarda kassa operatsiyalari hisobi. Banklarda kredit operatsiyalari hisobi. Banklarda lizing va faktoring operatsiyalari hisobi. Banklarda qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar hisobi. Banklarning chet el valyutasidagi operatsiyalari hisobi. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlari hisobi. Banklarda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari hisobi. Banklarda balansdan tashqari operatsiyalari hisobi. Bank buxgalteriya hisobotlari.

PUL VA BANKLAR fani bo'yicha:

“Pul va banklar” faniga kirish. Pulning paydo bo‘lishi, zarurligi va funksiyalari. Pul nazariyalari. Pul aylanmasi va uning tarkibi. Pul massasi va pul agregatlari. Pul tizimi: mazmuni, turlari va elementlari. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning elementlari. Inflyasiya va unga qarshi kurashish yo‘llari. Pul islohotlari. Kreditning zarurligi, funksiyalari, turlari va shakllari. Kredit bo‘yicha foiz stavkalar va ularga ta‘sir qiluvchi omillar. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi. Markaziy bank va uning

funksiyalari. Markaziy bankning mustaqilligi. Tijorat banklari va ularning funksiyalari. Tijorat banklarining operatsiyalari. Nobank moliya-kredit muassasalari. Bank inqirozlari. Pulning xalqaro munosabatlardagi harakati. Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi va funksiyalari.

MONETAR SIYOSAT fani bo'yicha:

Monetar siyosat fanning predmeti, maqsadi va vazifalari, Markaziy banklarning vujudga kelish zarurati va shart-sharoitlari. Monetar siyosatga nisbatan klassik va zamonaviy yondashuvlar. Monetar siyosatni amalga oshirish usullari va instrumentlari. Monetar siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy sharoitlari. Monetar siyosatning maqsadli ko'rsatkichlari. Monetar siyosatning transmission mexanizmlari. Inflyasion bosim va monetar omillarning inflyasiyaga ta'siri. Valyuta siyosati. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar monetar siyosatining o'ziga xos jihatlari. Iqtisodiy munosabatlarning liberallasuvi sharoitida monetar siyosatning dolzarb muammolari. Monetar siyosat instrumentlari asosida iqtisodiyotni rivojlantirish ssenariylari.

BANK MENEJMENTI VA MARKETINGI fani bo'yicha:

Bank menejmenti va marketing fani predmeti. Bank faoliyatida menejment va uning zarurligi. Bank menejmentining huquqiy asoslari. Tijorat banklari faoliyatini boshqarishni tashkil etish asoslari. Tijorat banklari faoliyatini korporativ boshqarish. Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy menejment. Bank xodimlarini boshqarish tizimi. Tijorat banklari faoliyatida marketing. Bank maxsulotlari va xizmatlari bozorini o'rganish. Tijorat banklarining mijozlari bozori. Banklararo raqobat: mohiyati va shakllanishi. Banklar faoliyatini strategik rejalashtirish.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – T.: O'zbekiston, 2018. – 46 b.
2. Mirziyoev SH.M. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 22.02.2021 yil.
3. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020 yil.
4. Mirziyoev SH.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. 23.09.2020 yil.
5. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RQ-580-son. 05.11.2019 yil.
6. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RQ-582-son 11.11.2019 yil.
7. «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-578. 07.11.2019 yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 yanvar “Investisiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-5643 sonli farmoni.
9. Introduction to banking. Barbara Casu Claudia Girardone Philip Molyneux. Pearson Education Limited. First published 2006.
10. The Mystery of banking. Murray N. Rothbard. Second edition. Ludwig von Mises Institute Auburn, Alabama. Copyright © 2008 by the Ludwig von Mises Institute.
11. Abdullaeva SH.Z. Bank ishi. Darslik. - T.:Iqtisod-moliya, 2017.
12. Жуков Е.Ф. Банковское дело. Учебник / – Москва.: Издательство Юрайт, 2015. – 591 с.
13. Лаврушин О.И. и др. Современные проблемы и перспективы развития финансовых рынков и банков. Учебник. – М.: КНОРУС, 2021. - 610 стр.
14. Omonov A., Qoraliyev T. Banklarda buxgalteriya hisobi T. Iqtisod-moliya 2014 yil.
15. Omonov A.A, Qoraliev T.M “Pul, kredit va banklar” Darslik. T.: - IQTISOD-MOLIYA, 2012 y. – 562 b.
16. Rashidov O. YU., Alimov I.I., Toymuhamedov I. R., Tojiev R. R. Pul, kredit va banklar. Darslik. – T.: TDIU. 2011 y. – 428 b.
17. Prof. Dr AP Faure. Money Market: An introduction.1 st edition. 2013 Quoin institute (PTY)Limited & Bookboon/com.
18. Azlarova A.A., Abduraxmonova M.M. Bank marketingi. TDIU, 2010 y.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.
3. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

4. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
5. www.mineconomu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti.
6. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

**Magistraturaga kirish uchun mazkur fandan maxsus
sinov imtihonlari bo'yicha
BAHOLASH MEZONI**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomning 2-ilovasi bilan tasdiqlagan "Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida NIZOM"ga ko'ra magistratura mutaxassisligiga muvofiq keluvchi ta'lim yo'nalishining maxsus fanlaridan yozma yoki maxsus test sinovlari shaklida kirish sinovlari o'tkaziladi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2021-2022 o'quv yilida magistraturaga talabalikka o'qishga qabul qilish bo'yicha mutaxassislik fanlardan kirish sinovi test shaklida o'tkaziladi va test natijalari qo'yidagi mezonlar asosida baholanadi:

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov - test variantlari mazkur fan dasturi mavzulari asosida tuziladi. Talabgor uchun maxsus fanlardan sinovdagi testlar soni 50 tani tashkil qilib, har bir to'g'ri variant uchun 2 ball to'plash imkoniyatiga ega bo'ladi. Jami to'g'ri topilgan testlar uchun maksimal 100 balldan iborat bo'ladi. Jami test variantlarini topshirish uchun ajratiladigan vaqt 1 soat 40 minutni tashkil qilib, har bir variant uchun 2 minutdan vaqt ajratiladi.

Har bir test varianti 4 ta muqobil javoblardan iborat bo'lib, ularda 1 ta to'g'ri javob mavjud bo'ladi. Test sinovlari kompyuter texnikasidan foydalangan holda o'tkaziladi va talabgor test savollarini echib bo'lgan zaxotiy oq test natijalarini bilish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'sha vaqtning o'zida test natijalari rasmiylashtiriladi hamda uzog'i bilan uch kun muddat ichida belgilangan tartibda Davlat test markazining tegishli elektron portaliga kiritiladi.

Test natijalaridan norozi bo'lgan talabgorlar test natijalaridan bilan tanishib imzo qo'ygan vaqtdan bir sutka ichida universitet qabul komissiyasi raisi nomiga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin bo'ladi.

Ushbu mutaxassislik maxsus fandan kirish sinovi-testlar uchun belgilangan maksimal ballning 55 foizi (55 ball) va undan kam ball to'plaganlar, shuningdek, belgilangan muddatlarda kirish sinovlariga kelmaganlar navbatdagi kirish sinoviga kiritilmaydi hamda magistraturaga qabul qilinmaydi.